

MAKTAB NIMA UCHUN KERAK?

Madina, o'quv yili boshlangani juda yaxshi bo'ldi-da! Maktabim, sinfdoshlarim va darslarimni juda sog'indim.



Ha, men ham maktabni juda sog'indim. U bizni ulkan bilimlar olami sari yetaklaydi. Senga qaysi fan ko'proq yoqadi?

Menga matematika juda yoqadi. Bundan tashqari, koinot va yulduzlarni o'rganishga ham qiziqaman.



Demak, senga kelgusida astronomiya fanini o'rganish ham yoqib qoladi. Men esa kompyuter savodxonligi bo'yicha darslar boshlanishini intizorlik bilan kutypman.



Siz-chi, siz nimalarga qiziqasiz?





Odamlar azal-azaldan atrof-olamni kuzatib, uni o'rganganlar, ko'rgan va eshitganlari haqidagi savollarga javob topishga intilganlar. Yoshi kattalar o'z bilimlarini yosh avlodga yetkazganlar.

Vaqt o'tishi bilan yangidan yangi fanlar paydo bo'lib, ilm-fan bilan shug'ullanadigan inson **olim** deb atala boshlandi.

Masalan, **astronomlar** yulduzlarni kuzatib, koinotni o'rganadilar. **Geograflar** Yerni, ya'ni biz yashayotgan sayyorani o'rganib, uni tasvirlaydilar. **Biologlar** tirik tabiatni, **tarixchi olimlar** esa odamlarning o'tmishi va hozirgi kundagi hayotini o'rganadilar. **Fiziklar** tabiat qonunlarini, **kimyogarlar** esa moddalarning xususiyatlarini o'rganish bo'yicha izlanish olib boradilar.



Rasmlarga qarang va o'ylab ko'ring. Qaysi fanlarni o'rganish bunday ixtirolar qilishga yordam bergan?




velosiped



telefon



antiseptik



to'rtburchak tarvuz






Atrofimizdagi turfa olam sirlarini tushunish uchun hammaga va hamma joyda juda kerak bo'ladigan narsa bu – bilim.

Insonning doimiy ravishda yangidan yangi bilimlar egallashi va turli kashfiyotlar qilishga intilishi tufayli **samolyot, internet, telefon** kabi ixtirolar yaratilgan.



Quyidagi asbob-uskunalaridan qaysilari olimlarga tadqiqotlar uchun kerak bo'ladi?



O'rtoqlaringiz bilan birga biror yangi ixtiro o'ylab topishga urinib ko'ring. Buning uchun sizga qanday bilimlar kerak bo'ladi?

